

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Nazarova Dildora Asatovna

*Oriental universiteti Pedagogika va
psixologiya kafedrası professori,
pedagogika fanlari nomzodi
e-mail:nazarova@gmail.com*

Nosirova Zamira Xosil qizi

*Oriental universiteti, Psixologiya yo'nalishi
301-guruh, 2-kurs talabasi
e-mail:zamiranosirova306@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlarning samaradorligini tahlil qiladi. Unda bunday bolalarning psixologik holati o'rganilib, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda qo'llaniladigan samarali psixologik usullar va strategiyalar yoritiladi. Psixologik yondashuvlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini yengillashtirish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ijtimoiy va emotsional holatni yaxshilashda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Maqolada shuningdek, alohida ehtiyojlarga ega bolalarga moslashtirilgan ta'lim metodlari, pedagogik strategiyalar, psixologik yordam shakllari va rivojlanish bosqichlariga mos psixoterapevtik usullar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Bolalar bilan ishlashda psixologlar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi. Maqola ta'lim muassasalarining psixologik resurslaridan foydalanish orqali bunday bolalarga samarali ta'lim berish imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Kalit so'zlar: alohida ta'lim ehtiyojlari, psixologik yondashuv, ota-onalar bilan hamkorlik, individual rivojlanish, zamonaviy metodlar.

Аннотация. Данная статья анализирует эффективность психологических подходов в работе с детьми, имеющими особые образовательные потребности. В ней рассматривается психологическое состояние таких детей, а также освещаются эффективные психологические методы и стратегии, направленные на поддержку их развития. Подчеркивается, что психологические подходы, учитывающие индивидуальные особенности учащихся, играют важную роль в облегчении образовательного процесса, повышении уверенности в себе, а также в улучшении их социального и эмоционального состояния. Также в статье подробно рассматриваются адаптированные образовательные методы, педагогические стратегии, формы психологической помощи и психотерапевтические методы, применяемые на различных этапах развития.

Особое внимание уделяется значению сотрудничества между психологами, педагогами и родителями при работе с такими детьми. Статья также раскрывает возможности эффективного обучения детей с особыми потребностями посредством использования психологических ресурсов образовательных учреждений.

Ключевые слова: особые образовательные потребности, психологический подход, сотрудничество с родителями, индивидуальное развитие, современные методы.

Annotation. This article analyzes the effectiveness of psychological approaches in working with children who have special educational needs. It examines the psychological state of such children and highlights effective psychological methods and strategies used to support their development. The article emphasizes that psychological approaches, which take into account the individual characteristics of learners, play a crucial role in facilitating the educational process, boosting self-confidence, and improving social and emotional well-being. Furthermore, the article provides detailed information on adapted teaching methods, pedagogical strategies, forms of psychological support, and psychotherapeutic techniques applicable at various stages of development. Special attention is given to the importance of collaboration between psychologists, teachers, and parents when working with these children. The article also explores how psychological resources within educational institutions can be utilized to provide effective education for children with special needs.

Keywords: special educational needs, psychological approach, parental cooperation, individual development, modern methods.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda har bir bola teng huquqli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar (ATEB) ta'lim tizimida maxsus yondashuvlarni talab qiladigan, turli psixologik va kognitiv xususiyatlarga ega o'quvchilardir. Ular o'ziga xos rivojlanish jarayoniga ega bo'lib, ba'zan akademik faoliyatda, ijtimoiy moslashuvda yoki emotsional holatda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday bolalar bilan ishlashda ta'lim jarayonining faqat akademik tomonini emas, balki ularning ruhiy, ijtimoiy va emotsional holatini inobatga olish zarur. Shunday qilib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga samarali yordam ko'rsatish uchun psixologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Psixologik yondashuvlar alohida ehtiyojlarga ega bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. Bu yondashuvlar nafaqat bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga, balki ularning o'zini hurmat qilish va o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishlariga ham yordam beradi. Psixologik yordamni ta'minlashda

o'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning o'rni beqiyosdir. Psixologik yondashuvlar orqali bu bolalar nafaqat ta'limda muvaffaqiyatga erishishlari, balki ijtimoiy va emotsional jihatdan o'zlarini qulay his qilishlari mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlarning ahamiyatini, turli metod va strategiyalarni, shuningdek, o'qituvchilar va psixologlarning roli haqida keng yoritadi.

Psixologik yondashuvning asosiy yo'nalishlari

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar turli metodologik yo'nalishlarga asoslanadi. Quyida ular ichida eng samarali deb hisoblangan asosiy yo'nalishlarni bayon etamiz:

1. Bio-psixo-sotsial yondashuv. Ushbu yondashuv bolaning shaxsini faqat individual jihatdan emas, balki u yashayotgan muhit bilan uzviy aloqada, ya'ni oila, maktab, sog'liqni saqlash tizimi va jamiyat kontekstida ko'rib chiqadi. Psixologlar bu yondashuvda ko'p tarmoqli mutaxassislar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Bu esa bolaning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va individual yordam strategiyalarini ishlab chiqishda katta samara beradi.

2. Psixologik xavfsizlikni ta'minlash. Alohida ehtiyojli bolalarning emotsional barqarorligi va ijtimoiy integratsiyasi uchun psixologik xavfsizlik muhitini yaratish zarur. Bu xavfsizlik muhitida bola o'zini erkin ifoda eta oladi, xatolardan qo'rqmaydi va ijtimoiy munosabatlarga faol kirisha oladi. Reabilitatsiya markazlari va ta'lim muassasalarida bunday muhitni yaratish psixologik yondashuvning ajralmas qismidir.

3. Zamonaviy rivojlantiruvchi metodlar. Bugungi kunda alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda individual rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, moslashtirilgan zamonaviy metodlar keng qo'llanilmoqda. Jumladan, "Portage", "Little Steps" va "Numicon" kabi metodlar bolaning emotsional, kognitiv, nutqiy va motor rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu metodlar maxsus dasturlar asosida tuzilgan bo'lib, har bir bolaning ehtiyojlariga mos tarzda moslashtiriladi.

4. Ota-onalar bilan hamkorlik. Psixologik yondashuvlarda ota-onalar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yish juda muhim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lgan hollarda bolalarning rivojlanish sur'atlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Ota-onalarning fikr va ehtiyojlarini inobatga olgan holda rejalashtirilgan psixologik xizmatlar yanada barqaror natijalar beradi.

5. Psixolog va pedagog o'rtasidagi hamkorlik. Psixologlar va maxsus pedagoglar o'rtasidagi yaqin hamkorlik bolaning ta'limiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini kompleks tarzda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Bunday professional hamkorlik o'quv jarayonini samaraliroq tashkil qilish, shuningdek, bolaning psixologik muammolarini erta aniqlash va tezkor choralar ko'rishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uslub. Ushbu izlanishimizda sifatli tadqiqot uslubidan foydalanildi. Asosiy e'tibor psixologik yondashuvlarning alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga qaratildi. O'rganishimiz doirasida bir necha metodlar qo'llanildi:

Kuzatish. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi inklyuziv sinflar o'quvchilarining o'quv faoliyati va ijtimoiy-emotsional holatlari kuzatildi.

Yarim strukturaviy intervyular - alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan muntazam ishlovchi o'qituvchilar, maktab psixologlari va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazildi. Ular orqali psixologik yordamning samaradorligi, qo'llanilayotgan metodlar va amaliy tajribalarga oid ma'lumotlar olindi.

Hujjatlar tahlili - maktablardagi psixologik xizmatlar, rejalashtirilgan strategiyalar va amaliyotga oid materiallar o'rganildi.

Izlanishimiz Toshkent viloyatidagi 5 ta ta'lim muassasasida olib borildi. Har bir muassasadan 4 ishtirokchi (o'qituvchi, psixolog, ota-ona) jalb qilindi. Ma'lumotlar tematik tahlil asosida qayta ishlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari haqida tushuncha

Alohida ta'lim ehtiyojlari (ATEB) o'quvchilarning intellektual, emotsional, psixologik yoki jismoniy rivojlanishidagi farqlar tufayli ularga standart ta'lim tizimi doirasida alohida yondashuvni talab qiladigan holatdir. Bunday o'quvchilar ko'pincha an'anaviy o'quv uslublari orqali to'liq rivojlana olmaydi va ular uchun individual moslashtirilgan ta'lim metodlari zarur bo'ladi.

ATEB bo'lgan bolalar quyidagi toifalarga mansub bo'lishi mumkin:

Ta'limdagi maxsus qiyinchiliklar. Masalan, disleksiya (o'qishdagi buzilishlar), disgrafiya, diskalkuliya yoki diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi (ADHD).

Jismoniy yoki sensor buzilishlar: ko'rish, eshitish yoki harakatlanishdagi cheklovlar.

Ruhiiy yoki emotsional muammolar: depressiya, tashvish, qayg'u holatlari yoki travmadan keyingi stress alomatlari.

O'ziga xos intellektual xususiyatlar. Masalan, yuqori intellektual ko'rsatkichga ega yoki iqtidorli bolalar.

Ushbu bolalar uchun ta'lim jarayoni ularning shaxsiy rivojlanish sur'ati, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim. ATEB bolalar bilan ishlashda inklyuziv ta'lim, differensial yondashuv va ko'p tarmoqli mutaxassislar (psixolog, defektolog, logoped) ishtirokida tashkil etilgan tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik yondashuvlarning ahamiyati. Psixologik yondashuvlar ATEB bolalar bilan ishlashda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ular bolalarning

nafaqat bilim olish jarayoniga, balki umumiy psixologik farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- **Bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash va tushunish** – har bir bolaning rivojlanish darajasi, qiziqishlari va qiyinchiliklarini baholash orqali individual yondashuv ishlab chiqiladi.
- **Emotsional va psixologik holatini hisobga olish** – bolaning ichki dunyosiga e'tibor qaratish orqali xavfsiz va ijobiy muhit shakllantiriladi.
- **O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish** – bolani rag'batlantirish, muvaffaqiyatga erishish tajribasini yaratish orqali uning o'zini qadrlashi mustahkamlanadi.
- **Ijtimoiy moslashuv va ta'limdagi muvaffaqiyatni qo'llab-quvvatlash** – bolalarning tengdoshlari bilan muloqoti, jamoada o'z o'rnini topishi hamda o'qituvchilar bilan ijobiy aloqasi mustahkamlanadi.

Shuningdek, psixologik yondashuvlar o'qituvchilarga ham bolalar bilan samarali ishlash, mos metodlar tanlash va stress holatlarini boshqarishda yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama. ATEB bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuv har tomonlama moslashuvchan, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli bo'lishi lozim. Har bir bolaning ehtiyojini aniqlab, unga mos yondashuv va vositalarni tanlash psixologik va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi. Psixologning roli faqat diagnostika bilan cheklanmay, balki tarbiyaviy, ijtimoiy va emotsional jihatdan bolani qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ota-onalarni ruhiy qo'llab-quvvatlash ham muhim omildir.

Psixologik yondashuvlarning turli metodlari

Individual yondashuvlar: Har bir bolaga uning ehtiyojlariga mos tarzda yondashish zarur. Bu metod bolalarning psixologik holatini inobatga olib, o'qish va rivojlanish jarayonlarini optimallashtirishni ta'minlaydi.

Kognitiv-behavioral terapiya (CBT): Bu metod, bolalarning salbiy fikrlarini o'zgartirish va ularning emotsional holatini yaxshilash uchun ishlatiladi. U o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini boshqarishda yordam beradi.

Vaqtini boshqarish va diqqatni jamlash: O'quvchilarga o'z vaqtlarini va resurslarini boshqarish bo'yicha psixologik ko'mak ko'rsatiladi. Bu, ayniqsa, ADHD yoki boshqa diqqatni jamlashda muammolar bo'lgan bolalar uchun foydalidir.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Psixologik yondashuvlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, ular bilan kommunikatsiya o'rnatish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Natijalar. Tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Psixologik xavfsizlik muhitining yaratilishi: reabilitatsiya markazlari va maktablarda ATEB bolalar o'zini xavfsiz his qiladigan, ijtimoiy qabul qilinadigan muhitga muhtoj.

2.Zamonaviy rivojlantiruvchi metodlar: “Portage”, “Little Steps”, “Numicon” kabi metodlar bolalarning emotsional, nutqiy, motor va kognitiv rivojlanishiga yordam beradi.

3.Ota-onalar bilan hamkorlik: psixologik xizmatlarda ota-onalarning faol ishtiroki bolalar rivojiga bevosita ta'sir qiladi. Yaxshi hamkorlik natijadorlikni oshiradi.

4.Multidisciplinar yondashuv: psixolog, o'qituvchi, logoped va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanish va integratsiyani ta'minlaydi.

Xulosa

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar juda katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar, bolalarning psixologik, emotsional va intellektual xususiyatlarini hisobga olib, ularni o'qish jarayoniga samarali jalb qilish imkonini beradi. Har bir bolaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va muammolarini aniqlash orqali ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlarini, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ham ta'minlaydi. Psixologik yondashuvlar orqali o'quvchilar o'zlarini yanada ishonchli his qiladilar, ta'limga bo'lgan qiziqishlari ortadi va ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashda psixologlarning, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi. Psixologlar bolalarning psixologik holatini baholab, moslashtirilgan o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishadi, o'qituvchilar esa bu strategiyalarni o'z sinfida qo'llashadi. Ota-onalar esa farzandlarining ehtiyojlari va rivojlanish bosqichlarini tushunib, ularni uyda qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim jarayonini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, psixologik yordam bolalarga o'zlarining imkoniyatlarini to'liq ochib berish, ijtimoiy jihatdan moslashuvni osonlashtirish va ularni o'z ta'lim yo'llarida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Psixologik yondashuvlar, ayniqsa, disleksiya, ADHD kabi muammolarni bartaraf etishda va bolaning o'qishdagi muvaffaqiyatsizligini yengishda samarali bo'lishi mumkin. Natijada, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'z salohiyatlarini to'liq amalga oshira olishadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlarni joriy etish ularning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi va ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Bu yondashuvlar orqali bolalar jamiyatga muvaffaqiyatli moslashib, o'zlarining potentsialini to'liq ochib berishga qodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qoninu. 2020.

3. «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.
4. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.
6. Broderick, A., Mehta-Parekh, H., Reid, D. (2005). Differentiating Instruction for Disabled Students in Inclusive Classrooms. *Theory Into Practice*, 44(3), 194-202.
7. Dewsbury, B., Brame, C. (2019). Inclusive Teaching. *CBE Life Sciences Education*.
8. Florian, L., Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. *British Educational Research Journal*. 28.
9. Mo'minova L.R., Nazarova, D. A. Inklyuziv va maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati. - Toshkent. «Lesson press» 2021.
10. Nazarova, D. A. Inklyuziv ta'lim asoslari. - Toshkent. «Lesson press» 2022.
11. Nazarova, D. A. (2020). «Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education.» *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(8), 7-12.
12. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021, ISSN: 2660-5643/ Page 149.